



Til va adabiyot ta'limi —
«Преподавание языка и литературы» —
«Language and literature teaching»
ilmiy-metodik jurnali

@Tilvaadabiyot.uz
elektron ilmiy-metodik jurnali

@
Tilvaadabiyot.uz

tilvaadabiyot.uz saytida mualliflik maqolasi joylashtirilganligi to'g'risida

SERTIFIKAT

Ushbu sertifikat **NAFOSAT O'ROQOVA**ning maqolasi
tilvaadabiyot.uz saytida chop etilganligini **tasdiqlaydi**.

**Mavzu: "O'zbek mumtoz shoirlari ijodida floristik obrazlarning
badiiy-estetik vazifalari"**

Nashrning Web-manzili: <https://tilvaadabiyot.uz/bosh-sahifa/product/17-son-2024-yil>

@Tilvaadabiyot.uz
elektron ilmiy-metodik jurnali
Bosh muharriri



N.X. Berdiyeva



Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

21-OKTYABR - DAVLAT TILI HAQIDAGI QONUN QABUL QILINGAN KUN



*Til — shuncha sharafi
bilan nutqning
qurolidir. Agar nutq
noma'qul bo'lib chiqsa
— tilning ofatidir.*

Alisher Navoiy





ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Tahrir hay'ati:

Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'liqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Bahodir Jovliyev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Alijon Safarov
Husniddin Norqulov
Odiljon Boynazarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To'maris Butunbayeva
Okila Turakulova
Yuldosh Raxmatov
Ramziddin Abdusatorov
Feruza Manukyan
Gulchexra Keldiyorova

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Bibimariyam RAHMONOVA
Shabnam G'ANIYEVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

M U N D A R I J A

Dolzarb mavzu

Akram Hamdamov. Xalq tilining
jozibas.....3
Surayyo Ziyotova. Alisher Navoiyning
"Hayrat ul-abror" dostonida turkiy
somatizmlarning qo'llanishi.....5

Tilshunoslik

Maxfuza Karaxodjayeva. Alisher Navoiy
lingvistik merosining mazmun va
mohiyati.....8
Yulduz Eshmatova. Istiqloq davri
o'zbek qissachiligida ayollar ruhiyatini
ifodalashdagi yordamchi badiiy
vositalar.....10
Nafisa Sadinova. O'zbek tili rasmiy
uslubida qoliplashgan jumalarning
qo'llanishi.....13
Shokirjon Aripov, Habibulloh
Olimjonov. Arab tilshunosligida
nutq tovushlarining hosil bo'lish
mexanizmlari.....15

Adabiyotshunoslik

Hoshimjon Ahmedov. O'zbek
adabiyotida sajli nasriy she'rlar.....19
Nilufar Sultonova. Adabiy asarda syujet
dynamikasi va ta'sir nuqtalari.....21

Tadqiqot

Nafosat O'roqova. O'zbek mumtoz
shoirilari ijodida floristik obrazlarning
badiiy-estetik vazifalari.....24
Zakir Bazarov. Badiiy tarjimada leksik
va stilistik bo'yoqdorlik muammolari.....28
Dildora Bazarova. Variantlilik
haqida.....31
Агата Осипова. К вопросу о
необходимости изучения устного
народного творчества на начальном
этапе подготовки бакалавра-
филолога.....33
Hulkar Aliqulova, Nigora Raxmatova.
Marosim folklori bilan bog'liq o'ziga xos
tamoyillar.....36
Sobir Mansurov. "Gulshani Dilafor"

to'plamidagi lirik she'rlar tasnifi.....39
Salima Karimova, Elinura Zokirova.
O'quv jarayonini samarali tashkil
etish metodologiyalari va ularning
innovatsion texnologiyalar bilan
integratsiyalashuvi: zamonaviy
yondashuvlar va istiqbollar.....41
Farxad Babadjanov. Hujjat
matnlarining lingvistik ekspertizasi.....43
Shahzoda A'zamova. Tohir Malikning
"Alvido bolalik" asarida terminlarning
lingvokulturologiyasi.....47
Aziza Erkinova. Fors-tojik, o'zbek, ingliz
adabiyoti she'riyatida "Noma (maktub)"
janrining shakllanishi.....49
Aziza Yusupova. Jahon tilshunosligida
konnotatsiya masalalarining
antropotsentrik paradigma asosidagi
tadqiqi.....51
Yorqin Djo'rayev. Badiiy asarlarning
falsafiy-psixologik tahlili vositasida
o'quvchilarning o'quv-biluv motivatsiyasini
shakllantirish metodikasi.....54
Shozod Normurodov. Imom Moturidiy
va u mansub bo'lgan tarixiy-ilmiy muhit
tasviri.....60
Shahzoda Nurillayeva. O'zbek tilida
odob-axloqni ifodalovchi birliklarning
lingvomadaniy talqini.....63
Ro'zixon Mavlonova. Ko'ngil ovi azmi
qarori yoxud Jon nisor ul sayyod
uchunkim.....65
Umidaxon Turakulova. Badiiy matnda
o'xshatishlarning o'rni.....68
Асаль Эргашева. О сущности
функционального подхода к
изучению лексико- грамматических
явлений русского языка.....71
Наргиза Ходжаева, Виктория
Гимадетдинова. Функционирование
и трансформация фразеологизмов в
русском языке XXI века.....73
Улугбек Баисов. Изучение



плеонастических выражений в современной лингвистике.....	75	ixtiloflar.....	103
Мамура Маллаева. Роль русского языка в современных условиях.....	77	Muhayyo Ismailova, Sagdiyana Abdusattarova, Jahongir Asatullayev. O'quvchilarning salomatlik darajasini aniqlash va sportga istiqboliligini tashxis etish.....	105
Akmaljon Baratov. O'rta masofaga yuguruvchi maktab o'quvchilari mashg'ulotlarini tashkil etish.....	75	Urmonoy Toshmatova. Boshlang'ich sinflarda mantiqiy masalalarni hayotga tatbiq etish.....	107
Исломжон Махсумов. Комплексный контроль ловкости в процессе многолетней подготовки футболистов.....	82	Jamshid Atavullayev. Anton Pavlovich Chexov ijodining o'zbek adabiyotiga ta'siri masalalari.....	109
Saodatkhan Khodjaeva. Features of translation of brand names and advertising slogans.....	84	Khurshida Toshova. Perl Bak asarlarida ayol matonati tavsifi.....	110
Dildora Babaxanova. The role of motivation in language learning.....	87	Zarina Homidova. Boshlang'ich sinflarda o'quv lug'atlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish usullari.....	113
Nargiza Aminova. Language evolution in the age of social media: a linguistic dilemma.....	89	Dilorom Mengziyoyeva. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida komil shaxs tarbiyasiga oid qarashlar.....	115
Ulmira Embergenova. Similarities and differences in professional lexicon and terminology in english language teaching.....	92	Ismigul Do'stmurodova. Xalq dostonlarida obraz va obrazlilik masalalari.....	117
Kichik tadqiqot		Kumush Odina Qarshiboyeva. Mansur Jumayev she'riyati haqida.....	120
Inomiddin Imomov. Kredit modul tizimi: muammo va yechimlar (nodavlat oliy ta'lim muassasalari misolida).....	97	Nigora Mirzoidova. The role of technology for developing critical thinking through reading and writing in improving the translation competence of university students.....	122
O'lmas Saidov. Ish yuritishga oid terminologik birliklarning shakliy tavsifi.....	99	Yoshlik ilhomlari	
Akbar Ruziyev. Tilshunoslikda diskurs atamasi talqini.....	101	Hakimbek G'ulomjonov. Yigirma yoshimda ellikka kirdim.....	124
Parviz Izzatillayev. "Majolis un-nafois" va uning forsha tarjimai "Latoyifnoma" orasidagi ayrim			

ONA TILIM

Garchi zug'um qilganlarni yoqtirmadim,
She'r yozdimu bo'lak ismi qo'irmadim.
Tilim turib o'z tilimda gapirmadim,
Bir eslasam eziladi bag'ri-dilim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Onam «erkam» deb quchiganda tunlar yarim,
Erkim yo'q deb zirqirardi bir joylarim,
Parovozni hansiratgan bug'doylarim,
Oltinlarim, ma'danlarim, ipaklarim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimlar uchun biz edik bir badaviylar,
O'zbekni qon qaqshatganni o'zbek siylar,
Holimizni qon kuzatdi Yassaviylar,
Topganimiz handalakdek tilim-tilim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Kimdir mayda millat bo'ldi, kimdir katta,
Katta millat — Afandisi yo'kdir hatto,
Biz piyoda, biz boqqanlar yurdi otda,
Zulm o'tsa faqat sendan o'tdi zulm,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Sen bo'lmasang nima bizga silliq she'rlar,
Bu dunyoda tili yo'qda dil yo'q derlar,
Bahoing-ku berib ketgan Alisherlar,
Yuraginning to'ridagi so'lmas gulim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Bir qarasam har shevangda ming jilolar
Har novdangda, har mevangda ming jilolar.
Qodiriylar, Cho'lponlar-u, Abdullolar,
Sening qaytgan kuning men tug'ilgan yilim,
Ona tilim, ey muqaddas Ona tilim.

Muhammad Yusuf

Nafosat O'ROQOVA,
Buxoro davlat universiteti dotsenti
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
n.y.uroqova@buxdu.uz

O'ZBEK MUMTOZ SHOIRLARI IJODIDA FLORISTIK OBRAZLARNING BADIY-ESTETIK VAZIFALARI

Annotatsiya: olamning badiiy manzarasini floristik obrazlar orqali ifodalash poetikasi qadimdan shakllangan. Ijtimoiy hayotni yoritishda, xalq turmush tarzini yorqin gavdalandirishda ularning adabiy-badiiy asarlardagi roli beqiyosdir. O'zbek adabiyoti, xususan, mumtoz she'riyatda floristik obrazlar ko'p uchraydi. Ularning genezisi folklor asarlariga borib taqaladi. Xalq lirikasida mazkur obrazlar orqali kishilarning his-kechinmalari ifodalanagan. Maqolada flora olamiga mansub obrazlarning mumtoz she'riyatdagi o'zni tadqiq qilingan. O'zbek mumtoz lirikasining yorqin namoyandalari ijodiga mansub she'riy parchalardan misollar olinib, mavzu doirasida chuqur ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *badiiy adabiyot, she'riyat, lirika, olamning badiiy manzarasi, o'zbek mumtoz she'riyati, obraz, floristik obraz, ramz*

Аннотация: поэтика выражения художественного картина мира через флористические образы формировалась с древнейших времен. Их роль в литературных и художественных произведениях несравненна в освещении общественной жизни и ярком воплощении образа жизни людей. Флористические образы часто встречаются в узбекской литературе, особенно в классической поэзии. Их генезис восходит к фольклорным произведениям. Через эти образы в народной лирике выражаются чувства людей. В статье исследуется роль образов флоры в классической поэзии. В рамках темы взяты и глубоко научно проанализированы примеры поэтических фрагментов, принадлежащих произведениям ярких представителей узбекской классической лирики.

Ключевые слова: *художественная литература, поэзия, лирика, художественная картина мира, узбекская классическая поэзия, образ, флористический образ, символ.*

Annotation: the poetics of expressing the artistic view of the world through floristic images has been formed since ancient times. Their role in literary and artistic works is incomparable in illuminating social life and vividly embodying people's lifestyle. Floristic images are often found in Uzbek literature, especially classical poetry. Their genesis goes back to folklore works. People's feelings are expressed through these images in folk lyrics. The role of flora images in classical poetry is studied in the article. Examples of poetic fragments belonging to the works of bright representatives of Uzbek classic lyric were taken and deeply scientifically analyzed within the scope of the topic.

Key words: *fiction, poetry, lyrics, artistic view of the world, Uzbek classical poetry, image, floristic image, symbol*

Kirish. Olamning badiiy manzarasini floristik va faunistik obrazlar orqali ifodalash o'zbek adabiyotining barcha davrlarida faol kuzatilgan hodisa sanaladi va bu o'ziga xos tadrijiylik kasb etgan. Qadimdan xalq og'zaki ijodi va mumtoz lirik asarlargacha, qolaversa, yangi o'zbek she'riyatida ham insonlarning xarakter xususiyatlari, jamiyatda hukm surgan siyosiy vaziyat, oddiy xalqning umumiy ahvoli, ularning ruhiyati, kayfiyati, alam-dardi, moddiy turmush tarzi o'simliklar, daraxtlar hamda hayvonlarning poetik obrazlari orqali ramziy gavdalandirilib, badiiy maqsadga erishilgan.

Mumtoz lirik asarlar xalq lirikasidan oziqlangan holda davom ettirildi. Unda mavjud poetik obrazlar mukammallashib, rivojlanib bordi. An'anaviy tarzda mumtoz adabiyot janrlarida ham asosiy obraz sifatida markazda turdi. Bunda, ayniqsa, nabotot va hayvonot olami vakillarining ishtiroki faollashdi.

Asosiy qism. Lirik shoirlarimizdan Lutfiy ijodi bundan mustasno emas. Uning "Yiroq" radifli g'azalida lirik qahramonning yordan ayro qolgandagi ichki his-

tuyg'ulari tug'yoni kuzatishimiz mumkin:

Lolatek bag'rimda dog' erdi, ajabkim, qolmisham

Bir suman, bir yuzi gul sarvi xiromondin yiroq [7, 49].

Bunda oshiqning yoridan ayrilgani uning dilini xufton qilganligi ifoda etilgan. G'am esa o'zidan keyin, albatta, biror asorat qoldiradi. Bu go'yo lola guli bag'ridagi qora dog'ga mengzalgan. Yor ta'rifini keltirishda uning yuzi gulga, sumanga, tik qomati, xiromon sollanishi sarvga o'xshatilgan. G'azalning dastlabki misralarida yor hijroni g'oyasi kengayib, g'azal maqta'siga yetib kelganda, lirik qahramon tushunib yetadiki, u sevgilidan ayrilish barobarida iymonidan ham ayriladi. Bunga sabab esa shoir "men"ning yor yuzidan hayrat maqomiga tushganligidir.

Lutfiyning "Qani?" radifli g'azalida ham yorning tik, chiroyli qaddi sarv daraxtiga tenglashtirilgan:

Ko'kardi chaman, guluzorim qani?

Sihi sarv bo'yluq nigorim qani? [7, 113]

Baytda bahor kelishi bilan atrofning yashillikka

burkanib, qish fasli o'z hukmini o'tkazgan bog'larning chamanga aylanishi aks etgan. Uyg'onish faslining ta'siri o'laroq oshiq ham ma'shuqasini izlab qoladi. Uning nazdida, yorning uzori (yuzi) – gulga, bo'y-basti sarvga monandir.

Ijodkorlar o'z fikr-tuyg'ularini tabiat hamda jamiyatdagi voqea va hodisalar bilan qiyoslab, obrazli ifoda etishga harakat qilishadi. Atoyining ham quyidagi baytiga diqqat qilinsa, lirik qahramon bilan tabiat o'rtasidagi uyg'unlik, yorqin va jonli tasvir kishini maftun qiladi:

Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyottin anjumanda [4, 24].

Baytda lirik qahramon ma'shuqasining go'zalligini birma-bir ta'rif qilmasdan, shunday hayotiy lavha keltiradiki, o'z-o'zidan yorning jilosi ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Ya'ni yor go'zalligidan, hatto, chamandagi gul ham uyatdan qizaradi. Bu ham mubolag'ali tasvir, ham hayotiy manzara.

Bobur ijodi ham bu kabi tashbehlarga boydir. Uning bir fardida shunday ajib bir mulohaza bor:

Chamanda sarvni o'lturg'uzubturur turushi,
Qiyomate qo'parubtur ot uzra o'lturushi [3, 142].

Demak, sanamning tik va go'zal qomati, rost turishining sarvga parallel qo'yilishi Bobur ijodida o'zining kamolot bosqichiga yetgan. Fardda keltirilgan ifoda shoir ijodining badiiy yuksak takomilga erishganini ko'rsatadi. Ham floristik, ham faunistik obrazlarni bir baytda qo'llash ijodkorning tabiiy uyg'unlikka yo'l ochganidan dalolat beradi.

Mazkur uyg'unlikni mumtoz adabiyotimiz namoyondalari maromiga yetkazib ko'rsatib bera olganlar. Masalan, Lutfiyning yuqorida tilga olganimiz "Yiroq", "Qani?" radifli g'azallari shu jihati bilan diqqatimizni tortadi:

Yoz faslikim, erur aysh-u tarabning mavsumi,
Soldi bulbul tek meni gardun gulistondin yiroq [7, 49].

Lirik qahramonga ko'ra, yoz fasli aysh-u tarabning ayni zamonidir. Taassufki, bu teskari falak oshiqqa rahm aylamagan. Uni bulbul gulistonidan judo bo'lgani singari taqdir zarbalari begona go'shalarga chirpirak qilib uchirgan. Bunda ma'shuq va bulbul obrazlarini parallel qo'yish orqali badiiy maqsadga erishilgan. Ya'ni taqdirning haqligi masalasi yoritilgan.

Topibdur bukun vasli gul andalib,
Darig'o, mening navbahorim qani? [7, 113]

Ushbu baytda teskari holatni kuzatamiz. Lirik qahramon o'zini bulbulga qiyos etmaydi. Balki bulbul gulning vasliga yetdi, mening navbahorim qani, deya faryod qiladi. Navbahor yoshlik, sog'lik, tinchlik-xotirjamlik, muhabbat kabi ramzlarni tashiydi.

Sharq she'riyatida majoziy ma'noda faol qo'llanuvchi sarv daraxti o'zini chiroyli va tik o'sishi bilan hamisha diqqatni tortib kelgan. Yor qomatining go'zalligini unga tenglashtirish, ayniqsa, mumtoz adabiyotda kuchayganligi, adabiy an'anaga aylanganligining

guvohi bo'lamiz. Odatda, u igna bargli, doim yashil manzarali ko'rinishda bo'ladi.

Ul parining naxl qaddi sarv erur, ruxsori – gul,
Kim ko'rubdur gul ochilmoq sarvi mavzun ustida [10, 56].

Shoir Munis o'zigacha bo'lgan an'anani yangilaydi. Ya'ni gul tugmaydigan sarv daraxtini "gullatadi". Bunda ma'shuqaning navniholdek qaddini sarvga, chehrasini gulga tenglashtirib, sarv ustida "gul undiradi". Bu ijodiy topilma shoirning mumtoz obrazlarga novatorona yondashganini dalillaydi.

Ul lola-vu, rayhon-u suman, toza qizil gul
Ham sarv bukuldi, qadi shamshod, eshigingda [10, 47].

O'zbek mumtoz lirikasining atoqli namoyandalardan biri Mashrab ijodida ham floristik va faunistik obrazlarga murojaat mavjud. Bir qancha g'azallarida boshqa timsollar qatori sarv obrazi an'anaviy tarzda qo'llangan. Yuqoridagi baytda lola, rayhon, suman, qizil gul singari ko'plab gullarni uchratamiz. Ular yor timsolining ochilishida muhim o'rin tutadi. Ma'shuqaning go'zalligi, rang-ro'yi, yoshligi sifatleri shu gul obrazlari orqali asoslangan. Ayrim mumtoz asarlarda sarvning o'rnini shamshod daraxti bilan almashtirgan holda qo'llashadi. Yuqoridagi baytda ham ikkinchi misrada qo'llangan sarv daraxti o'z vazifasini shamshodga topshiradi va yorning shamshodday go'zal qomati oldida qulluq qiladi. Yorning bo'y-basti shu darajada havas qilgulikki, uning nafasati oldida sarv ham bukilib qoladi. Baytda tanosub, tashxis, epitet, tashbeh singari she'riy san'atlarni o'rinli va go'zal qo'llay olgan, badiiy mukammal durdona asarlarni yaratgan Mashrab lirikasi hamisha kitobxonlar e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Salafllari an'anasiga sodiq, sermahsul ijodkorlardan biri Ogahiydir. Uning lirikasida sarv va shamshod obrazlarining alohida mavqeyi bor.

Bu ra'no qad bila gar bog'a kirsang, sarv ila shamshod

Bo'lub banda, turarlar bir ayoqda ehtirom aylab [10, 48].

To'qqiz baytli "Xirom aylab" nomli g'azalida mazkur ikkita obraz ishtirok etadi. Ammo bu safar ular ma'shuqaning qaddi-qomati ramzini ifodalab kelmagan. Aksincha, ra'no qadli yorning chiroyiga maftun bo'lib, bir oyoqda ehtirom aylab turadilar. Shoir husni ta'lil san'ati orqali sarv va shamshod daraxtlarining tik qomatiga ishora qiladi. Manzarani ko'z o'ngimizda badiiy jilolanishiga ulush qo'shgan tashbeh, jonlantirish, tanosub kabi ma'naviy san'atlar esa baytni boyitgan.

Mumtoz adabiyotimizga xos bo'lgan xususiyatlardan biri unda romantizm metodining tadjir topishidir. Oqibatda, unda mavjud barcha adabiy tur va janrlarda mazkur metodning ustuvorligini kuzatishimiz mumkin. Romantizm metodi – hayot haqidagi, olam va inson borasidagi orzu-istaklar ifodasidir. Bu metodda yaratilgan asarlarda xayoliy voqealar, orzulardagi

obrazlar asosiy o'rin tutadi.

G'uncha mumtoz obrazlar ichida eng ko'p tilga olinadi. Biologik jihatdan o'simliklarning gul kurtagi yozilganda gulga aylanadi. Mashrab g'azalida qo'llangan g'uncha obrazi shu mazmun-mohiyatni ifodalab kelgan:

Sahro yuzi ko'karmas to yoz bo'lmaguncha,
Bulbul tarannum etmas to g'uncha kulmaguncha [8, 12].

Baytda fasllarni almashtirib yuborilganiga guvoh bo'lamiz. Cho'l va saholarning yoz emas, aksincha, bahor fasli kelishi bilan jonlanishi, har xil g'iyoh hamda o'simliklarning ko'karishi hammaga ma'lum. Aslida, "g'unchaning kulishi" – bahor kelganidan darak beradi. Tabiatda uyg'onish faslining namoyon bo'lishi bilan, ya'ni uning tarovati olamni egallashi hamonoq barcha jonivorlar singari qushlar – bulbullar o'z nag'masini boshlaydi. Ular gul-g'unchalarga mahliyo bo'lib, bog' ko'rkiga ko'rk qo'shadi.

G'uncha o'simliklarning oddiy barg kurtagidan yirikligi va uchining to'mtoqligi bilan farq qiladi. G'unchada gulning barcha qismlari shakllangan. Barg qo'ltig'idan hosil bo'lgan g'uncha (gul bo'rtmasi) o'sib rivojlanib, to yozilguncha o'tgan davr g'unchalash davri deb ataladi. Bu davr o'simlik turiga xos asosiy belgi hisoblanadi. Diqqat qaratsak, adabiy asarlarda badiiyat nuqtayi nazardan g'uncha go'yo balog'atga yetib kelgan inson obrazini ramziy gavdalanitiradi.

Munisning "Hanuz" radifli g'azalida g'uncha o'z ma'nosida qo'llangan:

G'unchalar ochildi-yu, ko'nglum ochilmaydur hanuz,
Bulbuloso xotirim gul mayli qilmaydur hanuz [10, 32].

G'unchaning ochilishiga ko'ngilning ochilmagani zid qo'yilgan. Lirik qahramonning nedandir ko'ngli xijil. Bulbuloso xotiri ham gul-u gulzorni istamaydi. Baytda tanosub san'atining yuksak namunasi qo'llangan.

G'uncha hayratdin og'iz ochti, yiqildi yerga gul,
Bog' aro to la'li ruxsorin namoyon ayladi [10, 217].

Yuqoridagi bayt shoir Ogahiyning "Gul'uzorimkim" g'azalidan olingan bo'lib, mazkur g'azal boshdan-oyoq husni ta'lil asosiga qurilgan. Bayt sharhiga to'xtaladigan bo'lsak, ma'shuqaning o'z jamolini bog' aro namoyon qilishi zahotiyog hayratdan g'uncha og'zining ochilib qolishi, gulning yerga yiqilishi kuzatiladi. Bir qaraganda, asosli vaziyat. Ammo tabiatda g'unchaning ochilib, gulga aylanishi, gullarning esa yerga egilishi tabiiy jarayondir. Holatning shoir tomonidan bunday ishonchli dalillanishi kitobxon tarafidan ham ijobiy qabul qilinadi. Mazkur baytda g'uncha obrazi jonlantirilib, o'z ma'nosida qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, g'uncha kichkinaligi, hali ochilmagan go'zallik timsoli bo'lganligi uchun ma'shuqaning nozik, kichkina va betakror og'ziga ham qiyoslanadi. Buyuk mutafakkir Navoiy lirikasi buni

tasdiqlaydi:

Ketib g'unchadek dog'i nargis kibi

Og'iz birla ko'zdin manga xo'rd-u xob [12, 30].

Uning "Bahor elga ..." deb boshlanuvchi g'azalida lirik "men"ning dildan tuygan chuqur iztiroblari aks etgan. Buni Navoiyning yigitlik chog'ida boshdan kechirgan talotumli yillari bilan izohlash mumkin. Bahor yoshlik, navqironlik ramzini ifodalagan bo'lsa, shoir unga mos ravishda shabob, sahob, guli vasl, g'uncha, nargis, nasimi visol, hajr xori singari holat va istioralardan foydalanadi. Baytda g'uncha og'izga, nargis ko'zga o'xshatilgan. Lirik qahramonning ta'kidlashicha, bahor olamga zeb bergan bo'lsa-da, turli sitamlar, o'ylovlar natijasida yeyish va uyqu uni tark etgan. Demak, umumiy qaraganda, uning halovati yo'qolgani ifodasi turli badiiy vositalar orqali yetkazib berilgan.

G'uncha-u gul teng emas la'ling ila og'zinga,

Gulda shakar xanda-u g'unchada guftor yo'q [11, 109].

Yuqoridagi bayt go'zal va betakror lirik shoir Nodira ijodidan olingan. "Yo'q" radifli g'azalda lirik qahramon "chobuk"ning go'zal ta'rifi bilan birga uning holini so'rgali g'amxo'rning yo'qligidan shikoyat qilinadi. Mazkur baytda g'uncha, gul, la'l, og'iz, shakar, xanda, guftor so'zlari tanosub san'atini hosil qilgan. G'unchaning og'izga, gulning la'lga tenglashtirilishi oqibatida esa tashbeh yuzaga kelgan.

Muqimiy bir qancha ijodkorlar g'azallariga muxammaslar bog'lagan. Uning "Hijroni zor o'lturg'usi" taxmisi Navoiy g'azaliga bog'langan. Janr talabiga binoan, muxammasning so'nggi bandida har ikkala shoir taxalluslari keltirilgan. Olamning badiiy manzarasini ifodalashda shoir Muqimiy ham nabototga oid obrazlardan samarali foydalangan. Zero, o'zbek mumtoz adabiyotini floristik obrazlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ko'z shabnamidin g'unchani bulbul ochibdur orazin,

Yo ul gul-u rayhon ila sunbul ochibdur orazin [9, 286].

Mazkur muxammasda shoir tabiatning ajib manzarasini yaratgan. Uning fikricha, bulbulning oh-u zorlaridan paydo bo'lgan ko'z shabnamlari (aslida, shudring) g'unchaning orazini ochgan (ya'ni g'uncha gulga evrilgan). Bunga yondosh tarzda boshqa bir holat keltirilgan: gul-u rayhon bilan sunbul chehrasini ko'rsatgan. Shoir lirik kechinmani ifodalash uchun tabiat unsurlaridan unumli foydalangan.

Shunga o'xshash uslub, yo'nalishni shoir Ogahiy ijodida ham kuzatishimiz mumkin:

Ne tong, Ogahiy, nazar aylamas esa bog' sari nigorining,

Sochi sunbul-u, ko'zi nargis-u, labi g'uncha-vu, yuzi loladur [16, 136].

Ko'rinadiki, g'azalning lirik qahramoni shoirning o'zidir. U ma'shuqa obrazini gullarda ko'radi. Yorining

har bir a'zosida mukammallikni his qiladi va tabiatdan shunga monandini izlab topadi. Mumtoz adabiyotda an'ana tusiga kirgan tashbehlarni qo'llaydi: ma'shuqasi sochini sunbulga, ko'zini nargisga, labini g'unchaga, yuzining ol rangini lolaga mengzaydi. Bunda Ogahiy bir misraning o'zida yorga xos bo'lgan bir necha xususiyatni, unga nisbat berilgan sifatlarni birma-bir sanab ko'rsatadi. Buni tansiq us-sifot deyish mumkin. "Tasvir obyektining muayyan tomonini kengroq izohlash, uni bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qiluvchi [6, 73]" badiiy san'atlardan biri tansiq us-sifot orqali nafaqat bayt, balki butun asarning badiiy qimmatini oshirilgan.

Shu she'riy san'at bilan bezangan baytlardan birini Bobur ijodida ham kuzatamiz:

Xating bila yuzung-u kokulung sening, ey jon,
Biri binafsha, biri yosuman, biri rayhon [3, 87].

Mazkur bayt shoirning "Xating bila ..." deb boshlanuvchi besh baytli g'azali tarkibidan olingan. Yorning xati [1, 243] binafshaga, yuzi yosumanga, kokuli rayhonga o'xshatilgan. Bu qiyos ortida ma'shuqaning go'zalligi, tengi topilmasligi, noz-u karashmalarining adoqsizligi g'oyasi yashiringan. Uning tabiiy go'zalligi, barkamolligini dalillash maqsadida tabiatda mavjud obrazlarning olingani lirik manzumaning ishonchligini oshirgan. Ya'ni go'zal obrazlar ortida jozib bir narsa yashiringani, uning sirli bo'lib qolishi kitobxonlar diqqatini jalb qilishning individual bir yo'li ekanini ko'rish mumkin.

Kimdir ey qotil emastur tig'i nozing kushtasi,

Sunbul-u rayhon sochingni har bahor oshuftasi [9, 266].

Muqimiyning Furqat g'azaliga bitilgan bu taxmisida ma'shuqa surati o'zining butun jozibasi bilan gavdalandirilgan. Yuqoridagi baytda yorning sochini ta'riflash uchun floristik obrazlardan sunbul hamda rayhon gullaridan foydalanilgan. Mumtoz adabiyotda soch obrazi ham o'ziga xoslikka egadir. Sunbul guli sochga o'xshagani uchun qiyoslansa, rayhon esa sochdan taralgan muattar hidga nisbatan olingan. Kuzatishlarimizga ko'ra, mumtoz lirikada yor obrazini to'liq gavdalandirishda flora olamida mavjud turlardan samarali foydalanilgan.

Shoir yozuvchi idealidagi insonni yoki holatni ko'rsatish uchun qahramonlarini real hayotdagidan ko'ra bo'rttiribroq gavdalandiradi.

Ey gulim, qay kun borurman gulshani gulzoringa?

Gul uzib, bo'lsam musharraf davlati diydoringa [15, 10].

O'z zamonasining taniqli va zukko shoirlaridan sanalmish Zavqiyning "Ey gulim ..." g'azalida qo'llangan gul obrazi – yorga, gulshani gulzor esa yor manzil-makoniga parallel qo'yilgan. Yor tavsifi, uning xatti-harakatlari, oshiqclarining tang holati baland pardalarda tasvirlanganki, bu ma'shuqa talabini kuchaytirgan.

Navoiyning "Bog' atri chu nasimi ..." deb

boshlanuvchi g'azali eng ko'p qo'llanuvchi an'anaviy yetti baytdan iborat bo'lib, oshiqona ruhda yozilgan. Shoir uning har baytiga tabiat zarralari bilan zeb bergan:

Jilva qildi qadding-u nargis-u gul bo'ldi tonuq,

Anga qulluq xatikim savsani ozod berur [12, 56].

Baytdagi nargis, gul, savsan obrazlari shoirning badiiy maqsadi ro'yobi uchun xizmat qilgan. Misralarni sharhlash uchun ayrim istilohlarga izoh zarur. Tonuq – shohid, guvoh; savsan esa gulsapsar ma'nolarida keladi. Ma'shuqa o'z qaddi-qomatini ko'rsatganida yoki jon oluvchi qarashlari bilan atrofga ko'z tashlaganda, gulning bunga shohidligi ta'kidlanadi. Uning suvrati qarshisida savsan, ya'ni gulsapsar qulluq qiladi. Mazkur gulning, aslida, tabiat bag'rida ham egilgan holatda bo'lishi shu tariqa asoslangan. Ko'ramizki, husni ta'lil san'ati g'azalning badiiy mavqeyini bir pog'ona ko'targan.

Sharq mumtoz she'riyati bitiklarida bahor ko'rki bo'lmish lola obrazi mavjud:

Jonki, qat-qat qon bo'lubtur, dog'i ishqing ketmagay,

Lola bargidek ani bir-bir sovursang kuydirib [2, 48].

"Badoyi" ul-bidoya"dan keltirilgan mazkur satrlarda jon lolaga, yor hajri tufayli uning qat-qat qonga to'lishi lola barglariga mengzalgan. Shoir bu o'rinda rang vositasidan unumli foydalanib, misralarning ishonarli bo'lishiga erishgan. Ma'shuqa ishq lola bargidagi dog' singari oshiq joniga o'rnashganki, undan qutulib bo'lmaydi.

Firoq dashtidagi lolalar sarig' butmish,

Magarki dog'lari barcha dog'i hijrondur [12, 51].

Yuqoridagi parcha Navoiyning "Badoye' ul-bidoya" devonida jamlangan g'azallardan birining beshinchi bayti sanaladi. Bunda lola floristik obrazini qo'llash orqali badiiy niyatga erishish ko'zlangan. Chunki lolaning bag'rida dog'lar bor. Lirik qahramon visolga yetish orzusida kuyib-yonadi. Uni firoq alami qiynab keladi. Oqibatda esa, yuragida alam dog'lari o'z izini qoldiradi. Misradagi "firoq dashti" istiora bo'lib, holatning darajasini ko'rsatish uchun xizmat qilgan. Oshiqning ma'shuqa firoqida chekkan oh-u nolalari zarbidan lolalar qizil emas, aksincha, sariq tus oladi. Bu yerda sariq rang ayriliq, judolik, hijron ramziy ma'nolarini gavdalandirgan.

Xulosa. Olamning badiiy manzarasi turfa obrazlar, motivlar orqali namoyon bo'ladi. Floristik obrazlar mumtoz she'riyatimizda o'z ma'nosidan tashqari turli ramziy ma'nolarni ham ifodalab keladi. Nabotot olamiga mansub obrazlarning qanday ma'no tashishi shoirning dunyoni anglashi va anglata olish qobiliyatiga ko'ra tasniflanadi. Xususan, lola va lolaqizg'aldoq, g'uncha, boychechak, binafsha gullarining obraz darajasiga ko'tarilib, turfa ramziy ma'nolarni ifodalab kelishi yuqorida kuzatganimiz qator shoirlar ijodida kuzatiladi. Ularning obraz sifatida saralanishi mazkur gullarning xarakter-xususiyatlari, rang-tusi, mavjudlik vazifasidan

kelib chiqadi. Shu bois, aytish joizki, mumtoz lirikada gul va o'simlik obrazlarining qo'llanilishi bilan bog'liq yangi tadqiqotlarga milliy adabiyotimiz ehtiyoj sezadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avaznazarov O. Navoiy timsollari so'zligi. – T.: Spectrum Media Group, 2024. 288- bet.
2. Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя. www.ziyouz.com кутубхонаси. 490- бет.
3. Бобур. Девон. –Т.: Фан, 1994. 144-бет.
4. Девони Шайхзода Атойи. –Т.: Фан, 2008. 320-бет.
5. Haqqulov I. Mashrab nafasi. <https://khdavron.uz/kutubxona/uzbek/boborahim-mashrab-gazallar-ibrohim-haqqul-mashrab-nafasi.html>
6. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Зарқалам, 2006. 128- бет.
7. Lutfiy: g'azallar. Nashrga tayyorlovchi M. Kenjabek. –Т.: Akademnashr, 2020. 128- bet.
8. Mashrab: she'rlar/nashrga tayyorlovchi M. Kenjabek. – Т.: Akademnashr, 2020. 128- bet.
9. Muqimiy. Ikki tomlik asarlar to'plami. 1-tom. Lirika. – Т.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1960. 378- bet.
10. Mushkin qoshining hay'ati: Munis, Ogahiy/to'plovchi va so'zboshi muallifi E.Ochilov. – Т.: O'zbekiston, 2015. 224- bet.
11. Nodira – Komila. Devon. – Т.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. 346-bet.
12. Orazin yopqach ko'zumdin: g'azallar, qit'alar, ruboiylar, tuyuqlar, fardlar/Alisher Navoiy. So'zboshi, izohlar muallifi va to'plab nashrga tayyorlovchi M. Abdulxayr. – Т.: Zabarjad media, 2023. 160-bet.
13. Xolboyeva M. Xalq og'zaki ijodida gul va bulbul obrazi. Образование наука и инновационные идеи в мире. – Выпуск журнала №-35. – Часть-1. – Декабрь -2023. С. 189-191.
14. Xolboyeva M. Folklorda gul va bulbul obrazi. – Journal of universal science research. ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 - 5.073/Volume-2, Issue-2. – P. 396-400.
15. Завкий. Ажаб замона. Шеърлар. – Т.: Шарқ, 2003. 176-бет.

Zakir BAZAROV,

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi rahbari,
dotsent, f.f.f.d. (PhD)*

BADIIY TARJIMADA LEKSIK VA STILISTIK BO'YOQDORLIK MUAMMOLARI

Annotatsiya: badiiy tarjima – bu adabiy asarlarni bir tilidan boshqasiga o'tkazish jarayoni bo'lib, u nafaqat tilni, balki madaniyatni, hissiyotlarni va muayyan badiiy uslublarni ham o'z ichiga oladi. Badiiy tarjimaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan leksik va stilistik bo'yoqdorlikni saqlashga bog'liq. Ushbu maqolada badiiy tarjimada leksik va stilistik bo'yoqdorlik muammolari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *badiiy uslub, stilistik bo'yoqdorlik, metofara, taqqoslash, dialekt, nutq uslubi, simbolizm, tarixiy kontekst.*

Annotation: literary translation is the process of transferring literary works from one language to another, which includes material language, culture, emotions and certain artistic styles. The success of the literary translation depends on maintaining the lexical and stylistic coloring. Analysis of the problems of lexical stylistic coloring in literary translation in three articles.

Key words: *artistic style, stylistic coloring, metaphor, comparison, dialect, style of speech, symbolism, historical context*

Аннотация: художественный перевод – это процесс перевода литературных произведений с одного языка на другой, включающий в себя материальный язык, культуру, эмоции и определенные художественные стили. Успех художественного перевода зависит от сохранения лексической и стилистической окраски. Анализ проблем лексико-стилистической окраски в художественном переводе в трех статьях.

Ключевые слова: *художественный стиль, стилистическая окраска, метафора, сравнение, диалект, стиль речи, символика, исторический контекст.*

Leksik stilistik bo'yoqdorlik – bu so'zlarning ma'no va uslubiy jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lishidir. Badiiy asarda so'zlar nafaqat ma'noni ifodalaydi, balki muallifning hissiyotlari, ruhiy holati va uslubiy xususiyatlarini ham aks